



## BUXORO SHAHRIDA IXTISOSLASHTIRILGAN “JAYRON” PITOMNIGIDA EKOTURIZM VA U YERDAGI DAM OLIISH HOLATI

**Komilova Baxmal Odilovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrasida dotsenti

**G’Aniyeva Malohat Odilovna**

**Hayitova Shahnoza Jamolovna**

Buxoro davlat universiteti Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida 2  
bosqich magistrantlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8074404>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-June 2023 yil

Ma’qullandi: 20-June 2023 yil

Nashr qilindi: 23-June 2023 yil

### KEY WORDS

*Ekoturizm, O‘zbekiston, Buxoro, Mahalliy, Sayyoh, Flora, Fauna, Biologik xilma xillik, Tashrif-markazi, Harakatlar strategiyasi, Hindiston.*

### ABSTRACT

*Maqolada Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigida ekoturizm va dam olishni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarlar keltirilgan, ekoturizmni rivojlantirishning yangi imkoniyatlari, qurilish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirilishi haqida so‘z boradi.*

Tabiatni muhofaza qilish va biologik xilma-xillik resurslarini saqlab qolish barqaror taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Respublikamizda bioxilma-xillikni muhofaza qilish aynan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda to‘laqonli amalga oshirilmoqda. Respublikada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yaxlit bir tizimdan iborat bo‘lib, u bioxilma-xillikni uzoq vaqt saqlab qolishni ta‘minlovchi uzluksiz ekologik zanjirga aylanadi.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan sohani yanada rivojlantirish maqsadida turli qarorlar va dasturlar ishlab chiqilgan. Bularga 1999 yil 20 avgustdagi O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘grisida”gi qonuni, 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, turizmni istiqbolli islohotlarning sharoitlarini yaratdi. Prezident farmonida: “Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini – ekologik turizmni. ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” belgilangan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Buxoro ixtisoslashgan “Jayron” pitomnigining ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, uning ekotizimidagi o‘rni, tabiatdagi ahamiyatini baholash.

### Tadqiqotning vazifalari:

- Buxoro ixtisoslashgan “Jayron” pitomnigining ekoturizm va dam olishni tashkil

etishning o'rinini aniqlash;

- Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigining ekoturizmni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" ga kiritilgan o'simlik va hayvon turlari biologik xilma xilligini o'rganish;

- Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigining ekoturizmni rivojlantirishda xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb qilishni tahlil qilish;

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Tadqiqotning ob'ekti – Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigi va uning atrofidagi dam olish maskanlari .

**Tadqiqot predmeti** Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigi.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotlar asosan kuzatuv va taqqoslash uslublari asosida va iqtisodiy olinadigan daromadlarni tahlil qilish.

O'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishda biz, o'simliklar aniqlagichi, hayvonlarning sonini, uning yillik dinamikasini aniqlashda N.Kashkarov (1927), A.Novikov (1949) metodlaridan foydalanildi.

Dala tadqiqotlarini olib borish jarayonida o'simliklardan gerbariyalar tayyorlandi, uzoqdagi hayvonlarni yaxshi ko'rishni ta'minlash maqsadida binokl, ko'rish trubasi, JPS navigator, Canon fotoapparati kabi zamonaviy asbob – uskunalardan foydalanildi. Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi o'z hisobidan kelgan ko'ngillilar jumladan Buxoro davlat universiteti va Yaqinda tashkil qilingan Buxoro davlat pedagogika instituti biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari bilan ishlaydi. Ular hayvonlarni hisobga olishda, suyak qoldiqlarini yig'ishda yordam beradi. So'nggi yillarda davlat tomonidan Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida turizm infratuzilmasini yaratilishi faol qo'llab quvvatlanmoqda.

"Ekoturizm - bu hududning tabiiy va madaniy hamda etnografik xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish uchun, ekotizimlar yaxlitligini buzmaydigan va shunday iqtisodiy sharoitlarni yaratadigan, tabiati inson oyog'i nisbatan tegmagan joylarga sayohatni o'z ichiga olgan turizmdir. Bunda tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish mahalliy aholi uchun foydali bo'ladi.

Bugungi kunda, Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigida hayvonlarni parvarishlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Markazning yaratilishi, nafaqat jayronlar, balki boshqa ko'plab noyob o'simliklar, sutemizuvchilar, qushlar, baliqlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar sonining ko'paytirilishiga imkon berdi. Qo'riqxonada, uzun tikonli tipratikonlar va qulonlar, Prjevalskiy otlari va Buxoro tog' qo'ylari, aylanma shoxli echkilar va pushti saqoqushlar, turnalar va oqqushlar, burgutlar va lochinlar, kulrang echkamarlar va O'zbekistondagi cho'l gududlarida yashovchi boshqa ko'plab hayvonlarini ko'rish mumkin.

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi faoliyatida zamonaviy uslublar va texnologiyalardan foydalanish natijasida turlarning sonini hamda ularning yashash muhitining barqarorligini saqlashga erishildi. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida uchrovchi hayvonot va o'simlik turlar ro'yxatini tuzishga, istiqbolli turlarni iqlimlashtirishga O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan turlar sonining kamayib ketishining oldini olishda, biotexnik tadbirlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda hamda amaliyotga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ekoturizm va uning rivojlanishi nafaqat o'rganilayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga bog'liq bo'libgina qolmasdan balki shu hududning tabiiy sharoitiga, unda ekoturistik ob'ektlarning mavjudligiga va ularning geografik o'rniga ham bog'liqdir. Chunki tabiiy sharoit xususiyatlari hududning ekoturistik

imkoniyatlarini va uning qaysi turlarini rivojlantirish mumkinligini aniqlashga imkon beradi. Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomningi 1 - rasm



### **1 rasm Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomningi**

Respublikamiz o'zining turistik resurslari bo'yicha Markaziy Osiyoda oldingi, dunyoda noyob turistik potensialga ega joy egallaydi. Uning hududida har xil tarixiy davrlarga mansub noyob arxitektura, tarixiy va tabiat yodgorliklari mavjud. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomningi mahalliy va xorijlik sayyohlarni jalb qiluvchi asosiy omil bu uning maftunkor tabiati, hayvonot va o'simlik turlarning xilma-xilligi, iqlimi, ob havosi yil davomida dam olish, geografik o'rni qulay, tabiiy sharoiti va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Ekologik turizm tabiat bilan kishilarning uzviy bog'liqligi va bevosita muloqotini rivojlantirishga va tabiatda huzur-halovat, madad, quvvat, bilim, tashkil etuvchilarga esa katta daromad olishga umuman ekologik iqtisodiy barqarorlik va muvozanatni saqlagan holda faol dam olishga asoslanadi.

1977 yilda Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomningining hududiga 42 bosh jayron, 3 bosh Prjevalskiy oti va 4 bosh kulan qo'yib yuborilgan edi. Jayron"pitomningining ilmiy ma'lumotlariga ko'ra, bu yerdagi chegaralangan hududda 28 o'simlik oilasiga mansub 250 dan ziyod o'simlik turlari o'sadi. Yil davomida markaz hududida 257 turdagi qushlarni uchratish mumkin. Bu esa O'zbekiston ornitofaunasining 37 foizini tashkil qiladi. Shular ichidan qushlarning 63 turi in qurib yashaydi, ularning 23 turi noyob hisoblanadi, 20 turi O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan. Bu hududda sudraluvchilarning 21 turi (O'zbekistonda uchraydigan xilma-xillikning 25 foizi), bundan tashqari 33 turdagi sut emizuvchi (O'zbekiston xilma-xilligining 23 foizi), 2 turdagi amfibiya (O'zbekistonning xilma-xilligining 40 foizi), 150 turdagi umurtqasizlar va 15 turdagi baliqlar ham yashaydi.

Eng muhimi, "Jayron" pitomningining kelgusi avlod uchun butunlay yo'q bo'lib ketish xavfiga uchragan hayvonlarning noyob turlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi va Markaziy

Osiyoda noyob hayvonlarni qirilib ketishdan qutqarish markaziga aylandi.

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida qurilgan "Tashrif-markazi" binosi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida yiliga o'rtacha ikki ming nafarga yaqin sayyoh tashrif buyuradi. Ularning 30 foizini xorijiy mehmonlar tashkil etmoqda. Tabiiyki, bu yerda sayyohlar oqimini ko'paytirish, yoshlarni ona-tabiatga mehr-muruvvat ruhida tarbiyalash borasidagi imkoniyatlar katta.

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigining ekoturizm salohiyatidan unumli foydalanish va ekoturizmni samarali tashkil etish maqsadida zamonaviy infratuzulma yaratish uchun Davlat Ekologiya qo'mitasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 4,5 mlrdga yaqin mablag' ajratilib, uning hisobiga pitomnikda 20 o'rinli zamonaviy tashrif markazi barpo qilindi. Ana shundan kelib chiqqan holda Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida mamlakatimizdagi ana shunday go'shalar orasida birinchi bo'lib tashrif markazi qurilib foydalanishga topshirildi. (2 rasm)



## 2 rasm Tashrif markazi ichki ko'rinishi

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigidagi ushbu bino 3 qavatdan iborat tashrif markazini qurulishi 2020 yilning sentyabr oyida boshlangan bo'lib 2021 yilning yakuniga qadar qurulish ta'mirlash ishlari to'liq yakunlanib foydalanishga topshiriladi. 1-qavatda: qabulxona, 40 o'rinli konferensiyalar zali, ochiq muzey burchagi, laboratoriya xonasi, 2 ta ma'muriyat uchun mo'ljallangan xona, ov qurollarini saqlashga mo'ljallangan maxsus xona va sanitariya xonalari mavjud. 2-qavatda: bilyard zali va har biri 2 kishiga mo'ljallangan 10 ta zamonaviy xonalar mavjud. 3-qavatda: 40 o'rinli yozgi oshxona mavjud. Ayni vaqtgacha barcha infratuzulma maxsus mebel va kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlanib, barcha xonalarga konditsionerlar o'rnatilgan.

Bundan tashqari bino atrofi yuzasi loyihada ko'rsatilgan shaklda beton qoplama yotqizildi, bruschatka terildi, asfalt yotqizildi. Tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi.

Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi hududi Buyuk Ipak yo'li yoqasida joylashgan. Qadimgi Buyuk Ipak yo'li karvonlari Xitoydan Yevropaga qadimgi Buxoro orqali

o'tgan.

Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi hududida qadimgi sopol idishlarning XIII-XV asrlarga oid namunalari uchraydi. Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi hududida qadimiy vayron bo'lgan sardobalar qoldiqlari ma'lum, ayni paytda Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi dan 20 km uzoqlikda qadimiy sardoba saqlanib qolgan. Qorovulbozor va Bo'zachi sardobalari ham asosan chorvachilik va karvon yo'llari bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan.



### 3 rasm Qorovulbozordagi sardoba

Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigiga Kogon tumanidagi 3 ta tarixiy va madaniy meros obyektlari yaqin joylashgan tarixiy-me'moriy yodgorliklardan Kogon shahridagi tarixiy obidalar, Yangi hayot qishlog'idagi

1. Sayid Amir Kulol,
2. Qasri Orifon (Naqshband) qishlog'idagi Bahouddin Naqshband me'moriy majmualari (14-asr) saqlangan.
3. Xo'ja Ka'bul Axbor Vali ziyoratgohidir.

Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigiga kogon tumanidagi tarixiy va madaniy meros obyektlaridan biri Sayid Amir Kulol majmuasi.

Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigining 2-hududi chegaralarida zamonaviy qishloq xo'jaligi landshaftlari mavjud. Bu yerda qishloq xo'jalik maydonlari, sug'orish tizimlari, chorvachilik fermalarini ko'rish mumkin. Ushbu hududning yana bir o'ziga xos xususiyati cho'l biotsenozlarini tiklanish jarayonlarini kuzatish mumkin. Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigining yaqin hududida joylashgan qum barخانlaru, ularning o 'simlik va hayvonot dunyosi bilan yaqindan tanishish maqsadida mahalliy va xorijiy sayyohlarni tashrif buyirishlarini tashkil qilish mumkin.

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidagi "Buxoro agroklastor chorva" MCHJ faoliyati ish boshladidi Mamlakatimizda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni keng yo'l ochish, bunda kooperatsiya tizimidan samarali foydalangan holda aholi bandligini

ta'minlash, ularga daromad topishi uchun imkon berish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash va ularning mavjud muammolarini manzilli bartaraf etish borasida bir qator islohotlar hayotga tatbiq etilmoqda. Mahalliy va xorijiy sayohlarni agroturizm faoliyatini tashkil qilish imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalaniladi.

Xadicha, Zikri va Devxona ko'llar tizimida "Buxoroneftqurilish-montaj" ovchilik xo'jaligi MChJ. Buxoro viloyati Qorovulbozor tumaniga qarashli bo'lib, maydoni 40 000 ga. Suvlik maydonlariga "Zikri", "Xadicha", "Devxona" tashlama ko'llari kiradi. Xadicha ko'li Buxoro viloyatidan 70 km, Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigidan 30 km uzoqlikda janubiy sharqda joylashgan. 1980-1984 yillarda Janubiy kollektor suvi hisobidan hosil bo'lgan. Mahalliy va xorijiy sayohlarni ov turizmi faoliyatini tashkil qilish imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalaniladi.

Buxoro Ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida piyoda va avtoullovda sayohat yo'nalishlarini, kunduzgi va tungi ekskursiyalarni, professional fotosyomka va videosyomka qilishni taklif qiladi, turar joy bilan ta'minlaydi, botanika, ornitologiya va boshqa sohalarga ixtisoslashtirilgan ekskursiyalarni tashkil etadi. To'dako'l suv ombori yoki To'dako'l ko'li, mahalliy odamlar ta'kidlashicha, Buxoro yaqinida, Navoiy viloyati hududida joylashgan cho'lning o'rtasidagi ajoyib vohadir. Suv omboridagi suv achchiq-sho'rtob va qisman minerallashtirilgan bo'lib, u dengizga o'xshaydi. Suv ombori yaqinidagi nabotot va hayvonot olami o'zining boy xilma-xilligi bilan tashrif buyuruvchilarni hayratda qoldiradi. Bu yerda burgutlar, jayronlar, tulkilar, yovvoyi mushuklar, quyonlar, dasht qushlarini uchratish mumkin. Suv parrandalarining ko'plab sonini janubga mavsumiy ko'chish paytida kuzatish mumkin:

Mazkur dam olish maskanini qurish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 19 iyundagi "Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangandi. To'dako'l qirg'og'iga tutash bo'lgan 15 gektar maydonda mazkur ob'ektning birinchi bosqichida 500 nafar, ikkinchi bosqichida esa 1500 nafardan ortiq sayyohni qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Bu sayyohlik dam olish maskani ishga tushgach 150 dan ziyod yangi ish o'rinlari ochilishi ko'zda tutilgan. Navoiy viloyatida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan maktabdan tashqari davlat sport-ta'lim muassasasi hisoblangan Xalqaro shaxmat maktabi tashkil qilindi.

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomningi hududi bugungi kunda noyob va kam sonli hayvonlarni ko'payishi uchun muhim ob'ekt bo'lib xizmat qiladi. Pitomnikda ekoturizm va dam olishni tashkil qilish bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" va Xalqaro "Qizil ro'yhat" bilan muhofaza qilinayotgan noyob va Xalqaro "Qizil ro'yhat"ga kiritilgan turlarni saqlash va ko'paytirish, tabiatdagi sonini tiklash, biologik xilma xillikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Комилова, Б. О. (2021). Онтогенезда лактаза ва сахараза фаоллигига тироксиннинг таъсири. Биология и интегративная медицина, (6 (53)), 148-154.
2. Odilovna, K. B. (2022). Effect of the thyroxine on disaccharidases activity. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 531-537.
3. Odilovna, K. B. (2022). The effect of small doses of the drug "Edil" on the picture of leukocytes. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 441-446.

4. Камилова, Б.О. (2016). Влияние малых доз препарата "Эдил" на картину лейкоцитов (белых кровяных телец). *Учёный XXI века*, (6-3 (19)), 76-78.
5. Камилова, Б. О. (2020). The influence of the low-temperature environment on the activity of lactase in various parts of the small intestine. *Новый день в медицине*, (2), 692-694.
6. Камилова, Б. О. (2022). Влияние тироксина на активность лактазы и сахаразы в онтогенезе. *Scientific progress*, 3(2), 502-509.
7. Komilova, B. O.Shadiyeva M.S. (2022) State of immune response mediators in children with gastrity. *International Scientific Journal*. 1(2), 86-90.
8. Odilovna, K. B., & Sadirovna, S. M. (2022). Bolalarda oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasini o'rganishning immunogenetik jihatlarini. *Science and innovation*, 1(JSSR), 86-90.
9. Камилова, Б. О. (2022). Ичак турли бўлимларидаги сахараза фаолли-гига гидрокортизон ва тироксиннинг таъсири. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(4), 211-216.
10. Камилова, Б. О. (2021). Сут қандининг ўзлаштирилишида совуқ ҳароратнинг таъсири. *Биология и интегративная медицина*, (5 (52)), 4-11.
11. Камилова, Б. О. (2016). Влияние малых доз препарата "Эдил" на картину лейкоцитов. *Учёный XXI века*, (6-3 (19)), 76-78..
12. Odilovna, K. B. (2023). Asab hujayrasining qudratli kuchlari. *Uzbek Scholar Journal*, 12, 27-32.
13. Odilovna, K. B., & Marjona, I. (2022). Organizmning Bar'er Strukturalari Va Ularning Fiziologik Ahamiyati. *amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali*, 1(7), 315-318.
14. Komilova, B. O.Shadiyeva M.S.(2022)State of immune response mediators in children with gastrity. *International Scientific Journal*.Volume1, ISSUE 2, 2022 1(2), 86-90.
15. Рахмонов, Р. Р., Нўмонов, Қ. Х. Ў., Самадова, И. Ш., & Орипова, Ю. С. Қ. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ОВЧИЛИК СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 372-382.
16. Raimov, A. R., & Rakhmonov, R. R. (2019). Distribution and number of Common муна Acridotheres tristis (Linnaeus, 1766) in different habitats of the Kyzylkum region. *Природа Внутренней Азии. Nature of Inner Asia*, (2), 60-64.
17. Raximovich, R. R., Hamzayevich, B. A., & Umedjonovna, I. S. (2023). ZARARLI SUTEMIZUVCHILARNING INSON HAYOTIDAGI O 'RNI VA TABIATDAGI AHAMIYATI. *IQRO JURNALI*, 2(1), 537-544.
18. Rakhimovich, R. R., & Rustamovich, R. A. (2019). Structure and distribution of animals in the Bukhara region. *European science review*, 2(1-2), 34-36.
19. Rayimov, A. R., & Rakhmonov, R. R. (2019). The role of Acridotheres Tristis in Biotic Connection. *International Journal of Virology and Molecular Biology*, 8(1), 1-3.
20. Rayimov, A. R., & Rakhmonov, R. R. (2019). The distribution and number of Acridotherestrictis in different habitats in the Kyzylkum. *Nature of inner asia*, 2(11), 60-64.
21. Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). Ecological positions of hunting species in Bukhara region. *International Journal of Genetic Engineering*, 7(1), 15-18.
22. Rakhmonov, R. R., & Raimov, A. R. (2019). STRUCTURE AND DISTRIBUTION OF HUNTING ANIMALS IN BUKHARA. *Природа Внутренней Азии. Nature of Inner Asia*, (2), 65-68.
23. Rayimov, A., Rakhmonov, R., Nuriddinova, G., & Sanoqulov, R. (2021). BUKHARA REGION AND ITS RELATED TERRITORIES'SPECIES OF REPTILES PART AND NUMBERS'IN SPRING

- (AYOKOGITMA, KANDIM, AYOKGUJRUMLI, KIZILKUM STATE NATURE RESERVE). *Universum: химия и биология*, (5-2), 62-65.
24. Avaz, R., Rashid, R., Gulroy, N., & Ramizjon, S. (2021). BUKHARA REGION AND ITS RELATED TERRITORIES'SPECIES OF REPTILES PART AND NUMBERS'IN SPRING (AYOKOGITMA, KANDIM, AYOKGUJRUMLI, KIZILKUM STATE NATURE RESERVE). *Universum: химия и биология*, (5-2 (83)), 62-65.
25. Kholboev, F. R., Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). The role of adaptive reactions of starling synantropization. In *Региональные проблемы экологии и охраны животного мира* (pp. 167-169).
26. Rustamovich, R. A., & Rakhimovich, R. R. (2019). The distribution and number of *Acridotheres tristis* in different habitats in the Kyzylkum region. *European science review*, 2(1-2), 37-39.
27. Rakhmonov, R. R., Naimovich, Z. A., & Khudoikulova, N. I. (2021). Possibilities of Introduction of Hunting Tourism in Hunting Farms of Bukhara Region. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(1), 253-256.
28. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., Gulroy, N., & Ramizjon, S. (2021). Around territories of dengizkul, kora-kir and zamonbobo lakes' species of reptiles part and numbers' in spring. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 800-804.
29. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., & Kenjayevana, N. H. (2021). Taxonomic Analysis of Hunting Milk Markers in Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 13.
30. Amanovna, S. M., Rakhmonov, R. R., & Naimovich, Z. A. (2021). *Lagerstroemia indica* l. high potential medicinal plant in introduction conditions of kashkadarya. *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
31. Avaz, R., Rashid, R., Hikoyat, N., & Moxinur, R. (2021). DATA ON THE DISTRIBUTION AND ECOLOGY OF SANDSTONE *LEPUS CAPENSIS* IN BUKHARA REGION. *Universum: химия и биология*, (7-2 (85)), 4-8.
32. Shukurova, I. B., Rakhmonov, R. R., Ganieva, M. A., & Hayitova, S. (2022). "ЖАЙРОН" ЭКОЛОГИК МАРКАЗИДАГИ ҲАЙВОНЛАР БИОЛОГИЯСИ ЭКОЛОГИЯСИ ВА УЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШДАГИ ЎРНИ. *Miasto Przyszłości*, 24, 312-317.
33. Рахимов, Ж. Р., Рахмонов, Р. Р., Райимов, А. Р., & Бакаева, Ш. Б. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДА ИНТРОДУКЦИЯ ҚИЛИНГАН ЎТХЎР БАЛИҚЛАРНИНГ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(6), 23-28.
34. Kholboev, F. R., Rakhmonov, R. R., & Raimov, A. R. (2019). EVALUATION OF THE INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC FACTORS ON THE TYPES OF ANIMALS IN BUKHARA REGION. In *Региональные проблемы экологии и охраны животного мира* (pp. 214-216).
35. Рахмонов, Р. Р., & Бакаев, С. Б. (2016). Гнездование перепелятника *Accipiter nisus* в Сармышсае. *Русский орнитологический журнал*, 25(1358), 4214-4215.
35. Рахмонов, Р. Р. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ ОВЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ҲАҚИДА ЯНГИ МАЪЛУМОТЛАР. *BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(9), 169-176.
36. Рахмонов, Р. Р., Юсупова, С. Ж., Зарипова, З. Н., & Абдурахимова, А. А. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДАГИ ЙИРТҚИЧ БАЛИҚЛАРИ. *BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 71-82.

37. Рахмонов, Р. Р., Исломова, Ф. М., Кайимова, Р. У., & Коннов, И. Е. (2022). Биология, Экология И Распространение Кабана. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 1(10), 49-61.
38. Рахмонов, Р. Р. (2022). Бухоро вилоятидаги овчилик хўжаликлари ҳақида янги маълумотлар. *Science and Education*, 3(10), 68-76.
39. Рахмонов, Р. Р., Самандаровна, Қ. Д., & Норова, Д. Х. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДА УЧРАЙДИГАН НОДИР ВА КАМЁБ БАЛИҚХЎР ҚУШЛАР БИОЛОГИЯСИ ВА ЭКОЛОГИЯСИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1, 28-34.
40. Rashit, R., Avaz, R., Lobar, K., & Moxinur, R. (2021). Species composition and distribution of birds in the ornithofauna of Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 435-440.
41. Рахмонов, Р. Р., & Бехруз, Ҳ. (2022). УМУРТҚАСИЗЛАР ЗООЛОГИЯСИ ДАРСЛАРИДА “САРКОМАСТИГОФОРЛАР ТИПИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Uzbek Scholar Journal*, 10, 558-569.
42. Akmalovna, A. C. (2022). SOG'LOM AVLOD QOLDIRISH-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 177-181.
43. Aminjonova, C. A. (2022). Sog'lom ona va bola-baxtli kelajak asosi. *Scientific progress*, 3(1), 874-880.
44. Akmalovna, A. C. (2022, March). BIOLOGICAL PROPERTIES OF SOYBEAN. In *E Conference Zone* (pp. 90-94).
45. Akmalovna, A. C. (2022). Characteristics and Advantages of Soybean Benefits in Every way. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(8), 67-69.
46. Aminjonova, C. A. (2022). TALABALAR O'QUV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM INNOVATSIYALARIDAN VA METODLARIDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, 3(3), 447-453.
47. Aminjonova, C. A., & Jaloldinova, M. M. Q. (2023). VITAMINLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 288-296.
48. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). ОИЛАВИЙ ШИФОКОР АМАЛИЁТИДА ИНСУЛЬТ ЎТКАЗГАН БЕМОРЛАРДА КОГНИТИВ БУЗИЛИШЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ. *ЖУРНАЛ НЕВРОЛОГИИ И НЕЙРОХИРУРГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SPECIAL 1)*.
48. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). Оценка Состояния Когнитивных Нарушений У Пациентов Перенесших Инсульт В Практике Семейного Врача. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES*, 397-401.
49. Aminjonovich, A. A., & Akmalovna, A. C. (2021, March). METHODS OF TEACHING THE SUBJECT “BIOLOGY” IN MEDICAL UNIVERSITIES. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 3, No. 1, pp. 38-40).
50. Akmalovna, A. C. (2023). Ayollarda Vitamin Yetishmasligi Natijasida Kelib Chiqadigan Kasalliklar. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 2(2), 35-40.
51. Рахмонов, Р. Р., & Хайдарова, М. О. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДАГИ АЙРИМ НОЁБ МЕВАЛИ ЎСИМЛИКЛАР. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 203-210.
52. Шаропова, М. А., Рахмонов, Р. Р., & Хусниддиновна, Ж. Ҳ. (2022). ИНТРОДУКЦИЯ

ҚИЛИНГАН НОК PYRUS COMMUNIS L. ЎСИМЛИК НАВЛАРИНИНГ БИОЛОГИЯСИ ОИД  
МАЪЛУМОТЛАР. Uzbek Scholar Journal, 11, 76-86.

53. Amanovna, S. M., Raximovich, R. R., Nuriddinovna, M. G., & Bexruz To'liqin o'g, H. (2022). Limonning Ming Bir Dardga Davosi Va Foydali Xususiyatlari (Sil Va Skleroz Kasaligida, Jigarni Tozalashda). AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 1(7), 305-314.

54. Рахмонов, Р. Р., & Бехруз, Ҳ. (2022). УМУРТҚАСИЗЛАР ЗООЛОГИЯСИ ДАРСЛАРИДА “САРКОМАСТИГОФОРЛАР ТИПИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. Uzbek Scholar Journal, 10, 558-569.

55. Рахмонов, Р. Р., Исломова, Ф. М., Хайдарова, М. О., & Зайниддинова, М. Ф. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИДА РАСМАН ОБЛАНАДИГАН ҲАЙВОНЛАР БИОЛОГИЯСИ ВА ЭКОЛОГИЯСИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР. BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 1-13.

